
Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltmish birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Sessiyaga shahardagi sektor rahbarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga daxldor tashkilot va muassasalar rahbarlari taklif etildi. Sessiya ishini shahar hokimi, xalq deputatlari shahar Kengashi raisi Vosiljon Nazarov ochdi va olib bordi.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

????Farg'ona shahrida yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar haqida - Farg'ona shahar aholi bandligiga ko'maklashish markazi rahbari Sayfutdinov Shaxbozbek Ziloliddinovichni hisoboti.

????Hududlarda jamoat tartibini saqlash va xavsizligini taminlash huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda keng jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar haqida - Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, Jamoat xavsizligi xizmati boshlig'i Otajonov Sanjar To'lqinjonovichning hisoboti.

????"Sahovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish haqida - Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashi deputati, Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya a'zosi Erkaboyev Hayotjon Akramovichning axboroti.

????"2022 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha shahar mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalarini bajarilishi haqida - Farg'ona shahar moliya bo'limi boshlig'i Inoyatov Shuhratjon To'lanbayevichning hisoboti eshitildi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihalari deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

2022-06-13 09:42:44